

SAMARALI TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOG MAHORATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Normatova Solihabonu Nodirjon qizi

O'zDJTU 1-bosqich talabasi

normatovasolixa02@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada darslarni tashkillashtirish davomida o'qituvchining bilim berish ko'nikmalari va mahoratining ahamiyati hamda o'rni haqida so'z yuritiladi. Ta'lim sifatini oshirishda pedagog komplektini rivojlantirish usullari, pedagogning o'z faoliyatida kreativ yondashuvi, o'qituvchining darsni har tomonlama qiziqarli tarzda, interaktiv metodlardan foydalangan holda, olib borish qobiliyati va uning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kabi dolzarb mavzular yoritilgan. Pedagoglarning darsni boshqaruvchanlik qobiliyatlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini dars davomida qo'llash mahorati kabilar haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, ta'lim tizimi, sifatli ta'lim, pedagogik malaka, axborot texnologiyalari, faol metodlar.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА В ЭФФЕКТИВНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

***Аннотация:** В данной статье говорится о важности и роли педагогических навыков и умений учителя при организации занятий. В целях повышения качества образования актуальны такие темы, как методы формирования педагогической установки, творческий подход педагога в своей работе, умение преподавателя интересно провести урок, используя интерактивные методы, и т.д. освещается развитие его творчества. Говорится об умении педагогов управлять уроком, умении использовать на уроке современные образовательные технологии.*

***Ключевые слова:** профессиональные навыки, образовательная система, качественное образование, педагогическое мастерство, информационные технологии, активные методы.*

THE IMPORTANCE AND ROLE OF THE SKILLS OF PEDAGOGUE WHILE TEACHING EFFECTIVELY

Abstract: *This article talks about the importance and role of the teachers' teaching skills and abilities during the conducting the lessons. In order to improve the quality of education, current topics such as the methods of developing the pedagogic set, the creative approach of the pedagogue in their work, the ability of teacher to conduct the lesson in an interesting way such as using interactive methods, and also the development of the teacher's creativity are highlighted. It talks about the ability of pedagogues to manage the lesson, the ability of using modern educational technologies during the lesson.*

Keywords: *professional skills, educational system, quality education, pedagogical skills, information technologies, active methods.*

KIRISH

Barchamizga ayonki, bola hayotida ta'lim hamda tarbiya uzviy hamda bevosita bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Sifatli ta'lim esa bugungi zamonimizda eng muhim ehtiyojlarimizdan biridir. Bu borada esa yurtimizda ham ulkan islohotlar olib borilmoqda. Buning yorqin namunasi sifatida 2018-yilda qabul qilingan ta'lim sifatini oshirish to'g'risidagi qarorni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Qarorga ko'ra esa ta'lim sifatini xorij talablariga javob bera oladigan darajaga olib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo'nalishlariga mos keladigan ta'lim tizimini yaratish bu eng ustuvor masaladir. Ta'lim berish, o'quvchini har tomonlama barkamol hamda yetuk shaxs bo'lib yetishishida xizmat qilish hamda o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagoglarga qo'yilgan eng muhim talablar hisoblanadi. Shunga ko'ra pedagogning:

- Ta'lim berish jarayonida darslarni samarali tarzda olib borish uchun pedagogik-psixologik jihatdan tayyor bo'lishi;
- O'z kasbi bo'yicha yetarli malaka va bilimga ega bo'lishi;
- Dars mobaynida turli xil rivojlangan axborot texnologiyalardan foydalana olishi;
- Kasbiy axborot manbai bilan ta'minlangan bo'lishi;
- Uzliksiz ta'lim tizimidagi kerakli me'yoriy hujjatlar bo'yicha ma'lumotga egaligi uning eng muhim jihatlaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barchamizga ma'lumki, bugungi rivojlanayotgan zamonda darslarni puxtalik bilan olib borish va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish eng muhim ehtiyojlardan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda esa pedagogning roli eng muhim ahamiyatni kasb etadi. Ya'ni zamonaviy hamda ilg'or texnologiyalardan foydalanish ko'plab imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratib bersa-da, ustoz-shogirtlik an'anasi hamda pedagog mahoratini o'rnini bosa olmaydi. Mashhur professor olim Richard

Arends shuni ta'kidlaydiki, qay tarzda ta'lim berishni o'zlashtirish uchun uchta muhim omillarga e'tibor qaratilishi kerak. Avvalo, sifatli ta'lim bera olish uchun pedagog ta'lim jarayonini butun umri davomida o'rganishda davom etishi lozim. Chunki ta'lim jarayonini o'rganish faqat dars berishni boshlagan paytdan to malaka sertifikatini muddati tugagunga qadar bo'lgan davrdagina o'rganilmasligi kerak. Ya'ni ko'plab o'qituvchilarda ta'lim berish tug'ma qobiliyati mavjud bo'lsa, boshqa o'qituvchilar esa bu mahoratni umri davomida o'qib o'rganadi. Navbatdagi muhim omil bu har bir inson hayoti davomida o'z dunyoqarash hamda hayot borasidagi fikrlarini boshlang'ich sinf davridan o'zlashtira boshlaydi. Aksariyat hollarda ko'plab o'qituvchilar o'zlarining boshlang'ich ta'lim ustozlariga taqlid qiladilar. Uchinchi omil esa pedagog dars mobaynida yuzaga kelgan va kelishi mumkin bo'lgan samarasiz hamda yanglish bo'lgan xato nazariyalarni samarali hamda o'qituvchilarda darsga bo'lgan qiziquvchanlikni oshiruvchi boshqa ko'plab metodlarga aylantira olishi kerak.

Pedagogik mahorat haqida gapirar ekanmiz, bu tushuncha kasbiy faoliyat tarafdin kishining shaxsiyati hamda uning individualligini ta'minlaydi. Va pedagogik mahoratning o'ziga xos jihatlari ayrim tadqiqotlarda quyidagi kategoriyada namoyon bo'ladi:

1. Pedagogik mahorat
2. Pedagogik ijod
3. Novatorlik
4. Kasbiy bilimdonlik
5. Faoliyat uslubi
6. Innovatsion faoliyat
7. Pedagogik texnologiya
8. Mahorat

Bundan tashqari pedagog ijtimoiy tomonlama ham yetuk bo'lishi kerak. Olimlar I.A. Zyazyun va N.A. Lebedniklar ham pedagog nafaqat kasbiy mahoratga ega bo'lish, balki sotsial yetuk bo'lishga ham ehtiyoj sezishi borasida ko'plab izlanishlar olib borgan. Ular shaxning sotsial yetukligi hamda kasbiy mahorati uzviy bog'liqligini isbotlab berishgan. Pedagogning sotsial yetuk bo'lib yetishishi esa bosqichma-bosqich amalga oshadi. Pedagogning sotsial yetuklik komponentlariga quyidagilar kiradi:

- Sotsial o'zini-o'zi belgilash. Bunda pedagog o'zining o'qituvchilik mahoratini amalga oshirishi hamda namoyon qilishi kerak;
- Sotsial faollik. Pedagogning ijtimoiy jihatdan faolligi, ya'ni odamlar bilan ishlay olishi hamda munosabat o'rnatishi muhim omil hisoblanadi. Pedagog o'z o'qituvchilarini tarbiyalay olishi ham eng muhim belgilardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan, pedagog nafaqat bilim berish tomonlami, balki o'quvchilari bilan do'stona munosab o'rnatgan holda dars jarayonini yanada samarali tarzda olib borishi muhim hisoblanadi. Bugungi zamonaviy hayotimizda bolani turli xildagi ijtimoiy tarmoq vositalaridan uzoqlashtirib ularni dars jarayoniga qiziqtirish biroz mushkul vazifa sanaladi. Bunday vaziyatda esa pedagogning sotsial yetuklik qobiliyati qo'l keladi. O'quvchilarni dars jarayonida faolligini ta'minlash ham eng asosiy vazifalardan biridir. Darsni esa:

- Interaktiv metodlardan foydalanib;
- Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida;
- Turli tarqatma materiallardan foydalanib;
- O'zaro muhokamalar asosida

olib borilashi bu uning samaralilik darajasini belgilab beradi. Agar pedagog ushbu metodlar yordamida darsni olib borsa dars jarayoni qiziqarli o'tishi bilan bir qatorda o'quvchilarning barchasi darsda qatnashish imkoniyatini qo'lga kiritganligi bois ularni faoligi ham ta'minlanadi. Interaktiv metodlarning eng foydali jihatlari shuki, o'quvchi hamda o'qituvchi hamkorlikda ish olib borishadi va bu metodning asosiy vazifasi esa o'quvchini asosan fikrlashga undaydi. Biror masala yuzasidan fikr yuritib o'z xulosasiga kelishni, uni tahlil qilib amaliyotda qo'llashni boshlash bu interaktiv metodning eng muhim jihatidir. Pedagogning esa ushbu metodni qo'llash davomidagi asosiy vazifasi o'quvchilarga yo'nalish berish, to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda darsning so'nggida barchaning fikrini jamlagan holda to'g'ri va aniq xulosa berishdir. Ushbu metodning eng ahamiyatli jihatlaridan yana biri shuki, pedagog hech qachon o'quvchi bildirayotgan fikr va xulosalarni keskin rad etmaydi, balki vaqti-vaqti bilan unga yo'nalish berib hamda xulosalar chiqarib unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. O'quvchi esa bildirgan fikridagi ayrim xato va kamchiliklarini o'zi anglab ulardan to'g'ri xulosa chiqara oladi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib dars jarayonini olib borish esa bugungi kunning ehtiyojiga aylanib bormoqda. Ushbu vositalar yordamida darsni yanada takomillashtirilgan holatda o'tkazish mumkin. Darsga aloqador turli video hamda audio materillari bolalarda darsga bo'lgan qiziqishni orttirib darsning yanada samaradorligini oshiradi. Tarqatma materiallariga keladigan bo'lsak, ular turli xildagi maqsadlarda tayyorlangan bo'lishi mumkin. Masalan, ba'zi materillar orqali dars mavzusi haqidagi ma'lumotlar berilsa, ba'zilarida dars mavzusiga oid savol va topshiriqlar berilgan bo'ladi. Tarqatma materiallaridan foydalanish ham turlicha bo'lishi mumkin. Pedagog materiallarni tayyorlashda individual yoki guruhlariga bo'linib bajariladigan savol va topshiriqlarni o'z ichiga oluvchi jihatlariga alohida e'tibor qaratishi mumkin. Har bir darsning so'nggida esa turli muhokama va fikrlar jangini o'tkazish bu bola fikrlash doirasining kengayishi, dunyoqarashining oshishiga

katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi ushbu turdagi muhokamalar orqali o'z fikrini bayon eta olish mahoratini ham shakllantiradi.

Pedagogning nafaqat kasbiy jihatlama, balki uning shaxsiy jihatdan yetukligi ham muhimdir. Ya'ni o'qituvchining ham kasbiy xususiyatlari, ham shaxsiy xususiyatlari bir-biriga o'zaro bog'liq tushunchalar sanaladi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga bergan topshiriqlarni xolisona baholashi va ularni nazorat qilish mahorati bu juda muhim jihatdir. Shunga ko'ra pedagogga qo'yiladigan talablar avval boshida aytib o'tilganidek quyidagilardan iborat:

- Ta'lim berish mahorati
- Tarbiyalash olish qobilyati

Ta'lim berish mahoratini makammal egallagan pedagogning olib borgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarga chuqur yo'naltirilgan bilim berish bilan bir qatorda mustaqil davlatimiz ravnaqi, uning yanada rivojlanib dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan joy olishi, kelajakka bo'lgan ishonchi, xalqning esa aql-zakovati, o'z bilim va kuchi bilan nimalarga qodir ekanligini ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Bilamizki, bola vaqtining ko'p qismini maktab yoki o'qish joyida o'tqazadi. Shunga ko'ra xalq orasida ta'lim maskani bu o'quvchilarning ikkinchi uyi deb ta'kidlanadi. Demak, pedagog o'quvchiga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya berishi ham muhim sanaladi.

NATIJARLAR

Dars muqaddasdir. Uning qay darajada samarali tarzda o'tishi bu pedagogga bevosita bog'liq. Har bir pedagog o'z talab doirasidan kelib chiqqan holda darsni tashkillashtiradi. Shunga ko'ra darslar ham bir necha turlarga bo'linadi. Dars turlari bilan esa quyida tanishib chiqishingiz mumkin:

- Munozalar asosiga o'rnatilgan dars. Bunday darslarni olib borishda bir qancha omillarga e'tibor qaratilishi kerak. Avvalo, ushbu turdagi darslarni tashkillashdan oldin o'quvchilarni dars mavzusi bo'yicha xabardor qilish hamda ularni darsda faol qatnashishlarini ta'minlash maqsadida o'qilishi kerak bo'lgan adabiyotlar ro'yxatidan boxabar qilish muhim. Bu turdagi darslar yuqorida aytib o'tilgani singari sinfdagi barcha o'quvchilarni darsda faol tarzda qatnashishlarini ta'minlaydi. Bilamizki, biroz tortinchoq hamda kamgap o'quvchilar ham yo'q emas. Bunday o'quvchilarni ham darsdagi faolligini ta'minlash maqsadida ularga turli savollar berish hamda mavzu borasidagi fikrlarini so'rash asosiy vazifalardan biridir. Darsda muhokama qilinayotgan mavzudan chetga chiqib ketmaslik uchun esa pedagog o'quvchilarning fikrlarini tahlil qilib ularni chalg'itib yubormagan holatda darsni boshqarib turishi maqsadga muvofiqdir.



- Masofaviy ta'lim tizimidagi darslar. Bugungi kunda taraqqiyot tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Va albatta, zamonaviy texnologiyalar bizlarga har yerda va har qachon biz uchun notanish bo'lgan sohalarda o'zimizni sinab ko'ra olishimiz uchun imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shunday imkoniyatlardan biri bu onlayn, ya'ni masofadan turib ta'lim olish va ta'lim berishdir. Ushbu turdagi ta'lim nafaqat barcha uchun qulay, balki ko'plab xususiyatlarga ham egadir. Masaofaviy ta'lim tizimidagi darslar orqali o'quvchi mustaqil fikrlash, kechayotgan holatni baholay olish va eng asosiysi darsning so'nggida o'zi uchun kerakli bo'lgan xulosalarni chiqara olishi mumkin.



- Muammoli ta'lim tizimidagi darslar. Ushbu turdagi darslar o'quvchini fikrlash qobiliyatini kengaytirish va aynan fikrlashni muammoli vaziyatni yechishdan boshlash mahoratini shakllantirish, ijodiy tafakkurini oshishi va muammolarni aniqlab ularga o'rinli yechimlar topish qobiliyatini rivojlantirish asosiga quriladi. Bu darsda o'quvchilar oldiga pedagog tomonidan yechilishi kerak bo'lgan muammolar tashlanadi va bahs-munozaralar asosida olib boriladi.
- Ochiq dars. Ochiq darslar asosan o'qituvchining dars mobaynidagi ilg'or tajribalari va metodlarining samaradorlik darajasini ko'tarish va ommalashtirish maqsadida tashkillanadi. Ochiq darsni o'tkazishda ayrim vazifalar mavjud bo'lib bular bilan quyida tanishib chiqishingiz mumkin:
 1. Pedagog o'z tinglovchilariga fandagi eng so'nggi yutuq va yangiliklarni yetkazishi;
 2. Sifatli ta'lim jarayonida o'quvchilarning faollik darjasini nazorat qilinishi;
 3. Darsning samaradorlik darajasini oshirishda o'quvchilarga ilmiy-uslubiy jihatdan yetuk bo'lgan dars materiallarini targ'ib qilinishi;

4. O'quvchi va yosh pedagoglarning kasbiy mahoratlarini oshirishi;
5. Ochiq dars mualliflari moddiy hamda ma'naviy tomonlarni rag'batlantirilishi

Bu darsning asosiy vazifalari hisoblanadi.



MUHOKAMA

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalarga bo'lgan talab hamda qiziqishlar keskin oshmoqda. Chunki bilamizki, ushbu turdagi pedagogik texnologiyalarsiz tarqiyot hamda kelajak sari intilayotgan yurtda kerakli maqsadga erishib bo'lmaydi hamda bu yo'l kerakli samara bermaydi. Bunga esa bir nechta sabablar mavjud bo'lib bular quyidagilardan iborat:

7. Rivojlangan davlatlar qatoridan yuqori o'rinlarni egallash uchun ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zarurligi hamda ularning o'rni;
8. Ilm-fan va taraqqiyot tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi tufayli ma'lumotlar bazasining ham tobora kengayib borishi;
9. Rivojlangan texnologiya hamda texnikalarni ilm-fanga tatbiq etib, dars jarayonlarini kompyuterlashtirish, ta'lim berish jarayonida axborot texnologiyalarini olib kirishning muhimligi;
10. Pedagog hamda uning o'quvchilari o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish, o'qituvchining o'z sohasini puxta bilishlik darajasi, turli metod va usullardan foydalana olishi kerakligi;
11. Darsni tashkillashtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;
12. Pedagog sifatli dars tashkillashtirish uchun maqsad va vazifalarini oldindan aniq qo'ya olishi zarurligi;
13. Dars davomida berilgan topshiriq hamda vazifalarning xolisona va obyektiv baholanishi, o'quvchilarning fanni o'zlashtirish, malaka hamda bilimlarni egallash jarayonlarining doimiy nazorat qilib borilishining muhimligi;

oshirishda, balki kelgusi avlodning hayotini rivojlantirib ularni har taraflama barkamol bo'lib ulg'ayishida o'z hissasini qo'shadi. Bu esa mustaqil O'zbekistonning kelajagini buyuk qilib jahonning eng rivojlangan malakatlar safidan yuqori o'rin olishiga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Bugungi kunda bilim olish hamda o'zidagi malaka va mahoratlarni bo'lishishga qaratilgan ulkan imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan bir zamonda ushbu soha bo'yicha ulkan muvaffaqiyat va yutuqlarga erishish bu biz fuqarolarning eng asosiy burchimiz hisoblanadi. Demak, har bir pedagog yosh avlod hayoti va kelajagi uchun mas'ul ekan, mana shu yosh avlod ham ushbu harakatlardan o'zi uchun kerakli xulosa chiqarib o'z hayoti uchun taraqqiyot sari dadil qadamlar bilan harakat qilishi darkor. Bizga berilgan ishonch hamda imkoniyatlarni qadrlagan holda yurtimiz kelajagi hamda istiqboli uchun sidqidildan harakat qilishimiz bu bizlarning eng sharaflig burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arends R Learning to teach/2nd ed. McGraw-Hill, 1991
2. Azizxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent-2006/ O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti (136-138 betlar)
3. Omonov H.T, Xo'jayev N.X Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent-2009/ Iqtisod-Moliya nashriyoti (9-10 betlar)
4. Topilov O', Ro'ziyeva D Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Toshkent-2019/ Innovatsiya-Ziyo nashriyoti (213-214 betlar)
5. Ximmatqulova N.T Ochiq darslarni o'tkazish va ochiq darsni tahlil qilish metodikasi
6. O'rinova F.U Ta'lim sifatini oshirishda pedagogning mahorati, shaxsiy-kasbiy malakalari
7. <https://lex.uz/docs/-3765586>
8. <https://www.samdu.uz/uz/news/17638>
9. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/2269/html/70170/%D0%8A%D0%B3%C2%A0%C2%AC%C2%AC%C2%AE>

REFERENCES

1. Arends R Learning to teach/2nd ed. McGraw-Hill, 1991
2. Azizkho'jayev N.N. Pedagogical technologies and pedagogical skills Tashkent-2006/ Publishing House of the Literary Fund of the Writers' Union of Uzbekistan (pages 136-138)

3. . Khimmatkulova N.T. Methods of conducting open lessons and analyzing open lessons
4. Orinova F. Omonov H.T, Khojayev N.K. Pedagogical technologies and pedagogical skills Tashkent-2009/ Economics-Finance publishing house (pages 9-10)
5. . U. Skills, personal and professional skills of the pedagogue in improving the quality of education
6. Topilov O', Roziyeva D Pedagogical technologies and pedagogical skills Tashkent-2019/ Innovation-Ziyo publishing house (pages 213-214)
7. <https://lex.uz/docs/-3765586>
8. <https://www.samdu.uz/uz/news/17638>
9. <http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/2269/html/70170/%D0%8A%D0%B3%C2%A0%C2%AC%C2%AC%C2%AE>